ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ABDULLA QAHHORNING «BOSHSIZ ODAM» HIKOYASIDA HUQUQSIZ AYOL TIMSOLI

Abdivaliyev Obitjon Odiljonovich,
Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

XX asr o'zbek hikoyachiligining iqtidorli vakillaridan biri Abdulla Qahhor hikoyalarida ayollarning huquqsiz, chorasiz va erksizligi, ayanchli qismati, real voqealar asosida ifodalanganligini kuzatish mumkin. Uning «Boshsiz odam» nomli hikoyasida turmushda beva qolgan Niso buvining ikki qizi bilan birga Abdurahmon ismli kishiga turmushga chiqishi bayon qilinadi. Usta Abdurahmonning ham oldingi ayolidan Faxriddin ismli bir o'g'li bor edi. Oradan yillar o'tib ular yana to'rt farzand ko'rishadi. Hayotlarining 3-4 yiligina tinch o'tadi, holos. Usta Abdurahmon bir necha marta Niso buvining qizlarini kaltaklab, ozor beradi. Niso buvi bu tazyiqlardan qutulish maqsadida qizlarini internetga bermoqchi bo'lganida Abdurahmon: «Ha, Roziq yamokchining qizlari o'qib shahar so'rarmidi?» degan gapni eshitadi. Usta Abdurahmon qizlarni juda ko'p uradi, xo'rlaydi. Niso buvi urmasligini iltimos qiladi va ursa do'konga olib borib urishini so'ragandi usta: «Ha, joning achiydimi, bundan keyin men urayotganda kulib turmasang uch taloqsan...»[1] deydi. Shundan keyin usta qizlarni kaltaqlaganda Niso buvi ko'p martalab «kuladi». Bu «kuladi»jumlasida ayol qalbida kechayotgan ichki tug'yonlar, alam va afsuslarni sezish mumkin. U dardini kimga aytishni, chora izlashni bilmaydi. Faqat sukut va sabr, yolg'on «kulgu»gina uni qutqaradi, xolos.

Hikoyada xotin - qizlarga bo'layotgan munosabat jonli ifodalangan va kitobxonga ishonarli yetkazilgan. O'sha davr ayollarining huquqi yo'qligi, yostiqdoshini inson o'rnida ko'rmasligi, uning xohish-istagi bilan hisoblashmasligi, ayol bilan maslahatlashishni or biladigan, ortiqcha ish hisoblaydigan erlar hayotda mavjudligini yozuvchi ko'rsatadi va ishonarli epizodlarda isbotlaydi. O'sha kunlarda bu voqeani har bir xonadonda uchratish mumkin edi.

Usta Abdurahmon o'g'li Faxriddinga Mehrini olib berishini ko'pdan beri aytib yurar edi. Bola juda erka, tantiq bo'lgani uchun Niso buvi: «Ha, ishqilib, ikkovining ham boshi omon bo'lsin» deyar, bu «yo'q» degani edi.[2] Bu keltirilgan parchada ayol shunchalar huquqsizki, o'z farzandining baxti va kelajagini o'zi hal qila olmaydi va hatto eriga qarshi borolmaydi. Xotin bilan hech narsani maslahatlashmaydigan usta bir kuni ertalab nonushtadan so'ng chorshanba kuni to'y ekanligini aytadi. Niso buvi bunga qarshi borolmaydi. Uning qo'lidan hech narsa kelmaydi. Dardu alamlarini ichiga yutganicha hayron qoladi. Nima qilsin?! Qizi hali ancha yosh. Buning ustiga yomon ko'rgan bolaga qizini berishi kerak. To'y o'tadi, ammo Niso buvini «Mehrining bo'yida bo'lib qolishi»[3] qiynaydi. Tumorlar, qaytarma suvlar foyda bermaydi. Mehri homilador bo'ladi. Niso buvi qanday qilib oldini olishni bilmay, o'zini har qayoqqa uradi. Bolani tushirish uchun Mehrini ko'rpaga o'rab, «yangi qilingan kigizday yumalatadi».[4] Niso buvi Mehrining qorniga yostiq bilan uradi, ustiga chiqib o'tiradi. Nafi bo'lmaydi. Ayol sog'ligi, uning zaifligi, nodonlik, jaholat, eskicha diniy urf-odatlar o'tmishning oddiy haqiqatlariga aylangan edi. Niso buvi hamon harakatini davom ettirar, qizining bolasini yo'q qilish uchun chora qidirish bilan band. Unga kimdir qorinni silab, bolani ezib yo'q qilishni o'rgatadi. Besh kunlik harakat o'z natijasini ko'rsatib, oltinchi kuni kechasi Mehri to'lg'onib chiqadi. Bu holatni ko'rib turgan Faxriddin esa miq etmaydi.

Niso buvini dahshatga solgan holat esa usta Abdurahmonning o'g'li Faxriddin bilan gaplashayotgan holati edi: «Xafa bo'lma. Aravaga odam yubordim. Kasalxonaga yuboramiz. Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa xotinning urug'i Hirotdan kelgan emas!»[5]

Chorasiz, mushtipar ayollar ustidan chiqarilayotgan bu hukm o'sha davr ayollarining naqadar qadrsiz, bir buyumdek ekanligidan dalolat bermoqda. Jaholat shu qadar chuqurki, Faxriddin ham hali to'la ma'nan yetuk emas. Tarbiya, axloq-odob va uning so'zlarining o'ziyoq uning qanday ekanligini ma'lum qiladi. Mehri kasalxonada uzoq yotadi. Niso buvi kuyoviga Mehrini borib ko'rib kelishini aytadi. «Fax-

[1] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1987. – В. 258.
[2] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 259.
[3] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 259.
[4] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 259.
[5] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 259.

riddin peshonasiga qo‘ngan pashshani ushlagani qo‘l ko‘tarar ekan: - Dadam chorshanba kuni borgin deyaptilar, dedi»[1]. Usta Abdurahmon yo‘rig‘idan chetga chiqolmaydigan arzanda o‘g‘il chorshanba kuni ikki so‘m pul olib, ko‘rgani yo‘lga tushadi. Ota o‘g‘ilga o‘rgatadi: «Kirganingdan keyin so‘ra, yengil bo‘lsa «hayriyat» degin. Sening yo‘qliging uchun uyda tura olmayotibman. Yomon bo‘lar ekan degin». Aytilgan bozorlikni olib, dam qo‘li, dam burnini artib Faxriddin Mehrining oldiga boradi: «E, xo‘y! Yaxshimisan... xo‘y! Uyda sen yo‘q, dadam qiynalib qoldilar. Yomon bular ekan...»[2]. Keltirilgan parchaning o‘ziyoq oila bosqichiga bular tayyor emasligi, bolalik to‘nlarini hali yechmaganligidan dalolat bermoqda. Navbatdagi parcha yuqoridagi fikrlarni to‘la isbotlaydi: «Kundan-kun battar bo‘lgan edim, olib tashlashdi... Naq o‘layozdim.» - Xayriyat. - Ko‘rdim, boshi yo‘q ekan. Iye! - dedi Faxriddin og‘zini va ko‘zlarini katta ochib, bolani ham boshi bo‘lmaydimi! Dadamdan so‘raychi!»[3].

Yozuvchi Abdulla Qahhor Faxriddin timsolida o‘z fikriga ega bo‘lmagan, nodon, bilimsiz, omi, hali mustaqil hayotga tayyor bo‘lmagan yoshlarning qiyofasini aks ettiradi. Mehri esa juda erta majburlab erga berilgan, haq-huquqi yo‘q qizning tipik vakili. Mehriga o‘xshash huquqsiz, bilimsiz yosh qizlar o‘sha davrda har bir xonadonda mavjud edi. Niso buvi uchun har bir soniyada o‘lim bilan yuzma-yuz kelishi mumkin bo‘lgan Mehrining taqdiridan ko‘ra uni farzandini yo‘qotish muhimroq edi.

Homilasini tushirish uchun onasi tomonidan berilgan qiynoqlarning har qaysisida o‘limning nafasi kelib turibdi. Bu voqea o‘tmishdagi o‘zbek ayollari taqdirining bir lavhasi, xolos. Qizi tuzalib chiqishi bilan Niso buvi uydan ikki qizini boshlab bosh olib chiqib ketishi bilan hikoya o‘z nihoyasiga yetadi. Niso buvining ketishi eskicha qarashlarga qarshi keskin norozilik, qolaversa, isyonning bir ko‘rinishidir. Aslida Niso buvining o‘zi hali ko‘pgina eski urf- odatlardan, eskicha qarashlardan qutilmagan, ammo insoniy qadr- qimmatni tushuna boshlagan ayol ekanligini ham aytib o‘tish lozim. Mehri esa g‘ururi toptalgan, hali o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lmagan, savodsiz ayol timsoli sifatida ongimizda saqlanadi. Hikoyaga «Boshsiz odam» deb sarlavha qo‘yilgan. Homila haqidagi Mehrining gapi mavzuga, sarlavhaga ishora berganga o‘xshasa-da, hayotda kimlarning boshi yo‘qligi haqida kitobxon o‘zi xulosa chiqaradi.

«Abdulla Qahhor hayotda ham, badiiy ijodda ham o‘z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun sabot bilan kurashgan san’atkordir. Bu haqiqatlar uni qattiq qiynagan, qalbida og‘ir-og‘ir tebranish va tortishuvlar paydo qilgan. Ammo u ongli hayoti va iste’dod quvvatini aynan shu haqiqatlarga bag‘ishlagan.»[4].

Darhaqiqat yozuvchining «Boshsiz odam»hikoyasidagi Faxriddin obrazi orqali savodsiz, bilimsiz va o‘z fikriga ega bo‘lmagan bir kimsani tasvirlashning o‘zi emas, balki o‘sha davrning ijtimoiy hayotiga nigoh qaratilganligining ham kuzatish mumkin. Abdulla Qahhor o‘sha davrda davlat boshqaruvida ham bosh-badoqsizlik hukm surayotganligini, bori ham o‘z fikriga, qarashlariga ega emasligi, birlik, millat taqdiri uchun kurashadigan insonlarning yo‘qligini tanqid ostiga oladi.

Rezyume. Maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining iqtidorli vakillaridan biri Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam» hikoyasidagi ayollar obrazi tahlilga tortilgan. Asardagi huquqsiz ayollar qismati , ruhiy kechinmalari tadqiq etilgan.

Resume. The article analyzes the image of women in the story «Headless Man» by Abdulla Qahhor, one of the most talented representatives of 20th-century Uzbek literature. The fate and spiritual experiences of women without rights in the work are studied.

Резюме. В статье анализируется образ женщины в повести «Человек без головы» Абдуллы Каххора, одного из талантливейших представителей узбекской литературы XX века. Изучаются судьба и духовный опыт женщин, лишенных прав в труде.

[1] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 259.

[2] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 260.

[3] Абдулла Қаҳҳор. Беш жилддик. Биринчи жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – В. 260.

[4] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-abdulla-qahhor-jasorati-esse.html